

Bayramlarning nazariy asoslari. An'ana, odat, marosim va bayram tushunchalari

Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an'ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o'rin tutadi. Ular kishilar turmush tarzining o'ziga xos hosisasi sifatida namoyon bo'ladi.

“An'ana”, “odat”, “marosim” bevosita “bayram” tushunchasi bilan bog'liq.

An'ana – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida, kishilar ongiga singan (umum yoki ma'lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi. O'tkazgantadqiqotimiz natijasida “xalq an'analari” tushunchasining ijtimoiy-ma'naviy mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: xalq an'analari – uzoq taraqqiyot jarayonida etnoslarning ijtimoiy – ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy-ijodiy faoliyati asosida, atrof-muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog'liq holda avloddan-avlodga o'tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikri, orzu-o'ylari, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy-madaniy merosga aylangan.

Odat (urf-odat) – kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan hulq-atvor qoidalari, ko'nikmasidir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida kekxa qariyalar, kasal, ojiz, qiynalgan kishilar holidan xabar olish, qo'ni-qo'shnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga boorish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi.

“Odat” degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo'lib, u ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, kishining fe'l-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o'z-o'zidan beixtiyor bajariladigan harakat ma'nosini bildiradi.

An'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Odat esa muayyan bir kishining turmush tarsi, xatti-harakati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Marosim-inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, umum qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi. Masalan, ism qo'yish, nikohdan o'tish, dafn qilish, xotirlash, ekishga kirishish (urug' qadash), o'rimga kirishish marosimlari va hokazolar.

Odat kundalik hayotda doimo kuzatilsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim

voqealarni (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lim kabilarni) qayd etadi, rasmiylashtiradi. Marosimlarni o'tkazishda avloddan-avlodga o'tadigan, ramziy va rasmiy an'analar, qoidalarga amal qilinadi. Marosimga, bo'layotgan voqeaga "guvoh" sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g'ami yoki quvonchiga sherik bo'lishadi, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishadi. Har bir marosimning o'ziga xos umum qabul qilingan tuzilishi (boshlanishi, o'rtasi, oxiri) bo'ladi. Inson hayotida bo'lib o'tayotgan muhim voqeani nishonlash jarayonida an'ana ham, odat ham, marosim ham mujassamlashadi.

"An'ana", "odat", "marosim" bir-biri bilan bevosita bog'liq hodisa hisoblanadi. Shu bois an'analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim ham bo'lishi mumkin. Masalan, bilim yurtini bitirgan yosh mutaxassislarning ishlab chiqarishga borib ish boshlashi odat tusiga kirib qolgan. Bu muhim voqea munosabati bilan an'anaviy tadbirlar tashkil qilish mumkin. Bu odatning tarkibiy qismi – yoshlarni tantanali ravishda mehnat jamoasiga qabul qilish o'z-o'zidan marosimga aylanadi.

Ba'zi holatlarda "an'ana", "odat", "marosim" tushunchalari alohida ishlatilsa, ular mavhum ma'noni anglatishi ham mumkin. Bunday paytda ularga aniqlovchi so'zlar qo'shib, masalan, "an'anaviy bayram", "an'anaviy festival", "an'anaviy kecha" yoki "mukofotlash marosimi", "to'y marosimi", "nafaqaga kuzatish marosimi" tarzida qo'llaniladi. "Marosim" so'zi jamoatchilik ishtirokida o'tkaziladigan katta tadbir ma'nosini bildiradi. Ba'zi marosimlar (dafn qilish va qayg'uli hodisalardan tashqari) bayramlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi marosimlar bayram kunidan boshqa paytlarda tashkil qilinsa ham, u bayram tusini oladi. Masalan, "chigit qadash", "diploma topshirish" marosimlari o'z-o'zidan bayramga aylanadi. Tantanal ravishda attetstat topshirish marosimi ham har bir o'spirin uchun katta bayram sanaladi. Bular marosim bayramlarining tarkibiy (yoki asosiy) qismi ekanligini bildiradi. Keyingi paytlarda ilmiy adabiyotlarda, davriy nashrlarda "an'anaviy bayramlar", "yangi an'analar" so'zlari ishlatila boshladi. "An'anaviy bayramlar" deganda ma'lum vaqtda muntazam o'tkazib turiladigan azaliy madaniy-ommaviy tadbirlar – Gul bayrami, Lola sayli, Qovun sayli, Xirmon to'yi (hozirgi Paxta bayrami) nazarda tutiladi. Chunki ular qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lgan xalq bayramlaridir.

Bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlari

Odatda, bayram deganda biror-bir muhim hodisa, voqea, sanani ko'pchilik bo'lib, ko'tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash tushuniladi. Shu boisdan Beruniy bayramlarni hayotdagi "eng muhim kunlar" desa, Mahmud Qoshg'ariy "shodlik va xursandchilik kuni" deb ta'riflaydi (Mahmud Qoshg'ariy. "Devon lug'otit turk"). Bayram hayotning davomi, muhim qismidir. Bayram shaxs, oila, jamiyat, millat, davlat, xalqaro hayotdagi eng muhim hodisa, voqea, sanalarni qayd

etadi, ularni nishonlashga imkoniyat yaratadi. U kishilarning hayoti, faoliyatida erishgan yutuqlarini ifodalaydigan hodisadir. Bayram insoniyatning bosib o'tgan yo'llarini chuqur anglashga, g'alabalardan fahrlanishga, ertangi kun uchun rejalar tuzishga, kelajakka umid bog'lashga yordam beradi. Shu boisdan ham, bayram arafasida kishilar bir-birlarini tabriklashadi, yaxshi istaklar bildirishadi. Bayramlar istalgan paytda yoki o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Bayram ommada unga nisbatan extiyoj tug'ilganida, muayyan bir asos, sabab paydo bo'lganida, u maxsus uyushtirilganidagina ta'sirchan tadbirga aylanadi. Navro'zning yangilanishi Tabiatda tun va kunning teng bo'lishi, bahorning kirib kelishi, dalalarda ish boshlanishidan darak beruvchi, xalq tomonidan keng nishonlanuvchi Navro'z bayrami o'tgan davrlarda muayyan taqiqlarga duch kelsa-da, u xalq istagi bilan qayta tiklandi va 1990 yildan boshlab, mamlakatimizning rasmiy bayramiga aylantirildi. Avvalari Navro'z tabiat uyg'onishi, yangi qishloq xo'jalik mavsumini shodu-xurramlik bilan kutib olish tantana bo'lgan bo'lsa, u 90-yillardan boshlab yangilangan Navro'z sifatida tabiat va inson o'rtasidagi munsobatlarni uyg'unlashtiruvchi, tabiat go'zalliklari va boyliklarini saqlash, ko'paytirishga da'vat etuvchi, atrof-muhitni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, inson mehnatini ulug'lash kabi ulug'vor ishlarni amalgam oshirishga chaqiruvchi tadbirga aylandi. Zamonaviy mohiyat kasb etgan Navro'z mohiyatini kasb etgan yangicha Navro'z mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun avvalo, uning 90-yillarda respublikamizning turli hududlaridagi tiklanish tajribalari bilan tanishish lozim. Chunki bu bayram turli joylarda mahalliy sharoit va mavjud imkoniyatlar asosida rang-barang usul, shakllarda yangilana boshlandi. Navro'zni quyidagi tartibda o'tkazilgani ayon bo'ladi:

1. Navro'z bayramining tantanali ochilish marosimi va katta bayram tomoshasi.
2. Xalq sayli: ko'riklar, musobaqalar, tomoshalar va hakazo.
3. Navro'z bayrami ko'rik musobaqalari g'oliblarini taqdirlash marosimi.

Sumalak sayli

Sumalak xalqimizning ardoqli shodiyonasi-Navro'zning ko'rkidir. Sumalak-Navro'zning shoh taomi bo'lib, u ilk ko'klam darakchisi, baraka, hosildorlik, to'kin-sochinlik, ahillik, tan sihatlik va ezgulik timsolidir.

Sumalak tarixi. Sumalak nomli tansiq va shifobaxsh taomning kelib chiqishi tarixi olis ajdodlarimizning ibtidoiy yeg'im-terimchilikdan dehqonchilikka o'tish davrlariga borib taqaladi. Tarixchilarning ta'kidlashicha, bundan 3000 yil ilgari ham O'rta Osiyo aholisi o'rtasida bahorni kutib olish, qishloq xo'jalik ishlarini boshlash arafasida endi unib chiqqan ko'm-ko'k o't-o'lanlardan maxsus taomlar tayyorlab yeyish odati bo'lgan. Tabiiyki, "sumalak" so'zining ma'nosi va bu g'aroyib ne'matni tayyorlash udumining tarixiy asoslari ko'pchilikni qiziqtiradi.

Buyuk tilshunos Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida yozishicha, "suma" ivitilgan bug'doy nomi. U quritib tuyiladi, so'ng undan ugra oshi va non pishiriladi. Sharbat qilish uchun undirilgan arpaga ham "suma" deyiladi. Demak, "suma" – ivitilgan bug'doy yoki arpa ma'nosini anglatuvchi qadimgi turkey so'zidir. Shu boisdan sumalak pishirish udumi O'rta Osiyoda yashagan turkey qavmlari orasida qadimdan keng rasm bo'lgan, deb xulosa chiqarish mumkin. Ma'lum bo'lishicha, dastlab sumalakni bug'doydan emas, balki.. arpa maysasidan qilishgan ekan. Mahmud Qoshg'ariy "sharbat qilish uchun undirilgan arpa uchun ham" "suma" so'zi qo'llanilishini alohida ta'kidlagan bo'lsa, Beruniy yozib qoldirgan afsonada odamlar "Barakatga erishish uchun tos yoki boshqa idishlarga arpa ekan"ligi ma'lum qilingan. Sumalak Muhammad payg'ambar yashagan davrda ham ma'lum bo'lgan. Beruniy bergan ma'lumotlarga qaraganda Muhammad payg'ambarga sumalak keltirib berishganda, u bu nima ekanligini so'raydi. "Bu sumalak" deyishadi. Payg'ambarimiz sumalak nima ekanligini so'raydi. Unga "sumalak Navro'z taomi" deb tushuntirishadi. Shunda payg'ambar sumalakni tatib ko'rib, "Har kuning navro'z bo'lsin!" deydi. Ayrim tarixchilar "sumalak" forsha "Samoni" – bug'doy maysasi so'zidan kelib chiqqan, deb ham ta'kidlashadi. Shuningdek, «sumalak» «si malak» so'zidan olingan degan taxminlar ham bor. «Si malak — o'ttiz pari, o'ttiz farishta» degani. Sumalak pishayotganda, kozon boshida o'ttiz malak o'tirar emish. Ular yordamida sumalak pishar ekan. Tong mahali, hamma charchab, uxlab qolganida, farishtalar sumalakka tuz soladilar va u shirin bo'ladi (Yo'ldosh Muqim o'g'li Otash. Navro'z naqli. — T.: O'zbekiston, 1992. — 10-bet). M. Xasanov yozma tarixiy manbalarga, jumladan, Muhammad Husayn Burxonning «Burxoni qoti» lug'atiga tayanib, sumalakni «samanu» so'zi bilan bog'lab, quyidagilarni yozadi: «samanu — holvaytarga o'xshagan narsa, ko'klagan bug'doy usimtlarining shirasidan tayyorlanadi».

Husayn al-Oqdliy (XVIII asr oxiri) fors tilida yozgan «Davolar xazinasini» kitobida sumalak haqida shunday yozadi: «Samanu — «nayda»ning forsha nomidir. Uni «samanu bavvo» yoki «samani buyo» deyishadi. Ko'pgina mamlakatlarda sevimli, mashhurdir. U shirin va lazzeatli taomdir (O. Bo'riyev. Navro'z tarixidan lavhalar,— T.: O'zbekistan, 1990. — 50— 51-betlar).

Umar Xayyom qalamiga mansub «Navro'znoma»ning arpaga bag'ishlangan bobida aytilishicha, qadimgi Eron shoxdari arpa maysasini yaxshilik alomati sifatida e'zozlaganlar. Chunki arpa boshqa ekinlardan barvaqtroq, yetiladi. Hatto, «arpa qirq, kunda ombordan omborga o'tadi» degan naql ham mavjud ekan. Eronliklar oy tutilgan tunda ekilgan arpa donidan ruhiy xastalik shifo topadi, to'lin oy nur taratib turgan kecha ekilgan arpa doni bilan otlar boqilsa, ular semirib ketadi, arpa maysasini qaynatib ichgan odam darmonsizlik dardidan forig' bo'ladi,

deb ishonishar ekan. Dehdonlar esa erta bahordanoq, arpa maysasi holatiga qarab, kuz qanday kelishini taxmin qilisharkan. Umar Xayyom arpa maysasining xosiyati haqida quyidagi afsonani ham keltiradi: Kunlardan bir kun Xurmuz arpa ekilgan dala yonidan o'tib qolibdi. Ilk bahor chog'i, arpa maysalari ancha buy tortib solgan ekan. Dehqon arpasini sug'ormoqchi bo'lib, ariq daxanasini dalasiga to'g'irlab qo'ygan ekan, arpapoya suvga to'lib, uvatidan oshib, yo'lga toshib ketayotgan ekan. Buni ko'rgan Xurmuz arpapoyadan oqib chiqayotgan suvdan bir ko'za to'ldirib olishni buyuribdi. Mulozimlar uning aytganini bajo keltirishibdi va Xurmuzdan so'rashibdi:

Arpa ichidan toshib kelayotgan suvdan olishingizning boisi nedur?

Shunda Xurmuz: «Arpa tabarruk don, uning maysasi esa barakat ramzidir. Kimda kim erta bahorda arpa maysalari orasidan oqib o'tgan suvdan ichsa, charchog'i yoziladi, oshqozon dardlaridan forig' bo'ladi, kelasi yil arpa pishitgacha tetik va bardam bo'lib yuradi! — deb javob beribdi. Naql qilishlaricha, tongga yaqin sumalakni kovlayotganlarni uyqu elitib, ular pinakka ketgan paytda osmonu falakdan uchib kelgan maloyikalar qozonga tuz tashlab ketarmish. Sumalakka tuz solinmasligi va uning quyosh chiqqan paytda suzilishi qadimgi udumlar bilan, bog'liqdir. Sumalak haqida rivoyatlar. Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridagi bir afsonada sumalak pishirish tarixi bayon qilingan: «Navro'z tongida Bushanj (Xurosondagi shahar) tog'ida bir boylam giyog' tutgan indamas bir kishi ko'rinadi. U bir soatcha paydo bo'lib, kelgusi yil shu vaqtgacha g'oyib bo'ladi», deyдилar. Zadavayxh aytishicha, bu hodisaga sabab quyoshning janubiy tomondan, ya'ni afoxtardan chiqishi bo'lgan. Chunki la'nati Iblis barakatni ketkizaverganidan keyin, odamlar ovqat va ichimlikdan bosh ko'tarmaganlar, ammo to'ymaganlar. U shamolni ham esishdan to'xtatgan. Natijada daraxtlar qurib, dunyo halok bo'lishiga yasinlashgan. Shunda xudoning amri va yo'l ko'rsatishi bilan Jamshid Iblis va uning yordamchilari turgan joyni mo'ljallab, janubiy tomonga borgan va to barakatsizlikni ketkuzgunicha bir qancha vaqt o'sha yerda qolgan. Odamlar yana mu'tadil (holatga), barakat va farovonlikka qaytib, balodan qutilganlar. Shu vaqt Jamshid dunyoga qaytib, shu kuni quyoshdek charaqlagan va undan nur taralib turgan, chunki u quyosh singari nurli ekan. Odamlar ikkita quyosh charaqlab turganidan ajablanganlar. Hamma qurigan cho'plar ko'kargan va odamlar «Ro'zi nav», ya'ni «yangi kun» deganlar. Har kim barakatga erishmoq, uchun idishlarga arpa ekan. Keyin podsholar saroyining sahni atrofiga 7 taxta ekish rasm bo'lib qolgan. Bularning unib chiqishiga qarab, shu yil galla doni to'q yoki puch bo'lishi taxmin silinar ekan». Sumalak — shifobaxsh taom. Sumalakning inson salomatligiga foydasi ham ko'p. Ulardan biri quyidagicha: Bir yigitning otasi ota kasal bo'libdi. Uni davolash uchun tabib chaqirishibdi. Tabib kasalni ko'rganidan so'ng: «Har

kuni bir, haftada bir, oyiga bir, yiliga bir»,— debdi. O'g'il tabibga bu so'zlaringizning ma'nosini tushunmadim debdi. Shunda tabib: «Har kuni o'g'il ishdan keyin bir dam olish, haftasiga bir marta hammomga tushish, oyiga bir ziyoratga borish yoki sayilga chiqish, yilda bir marta ko'kdan tayyorlangan taom — sumalakka to'yish kerak. Shunda odam kasal bo'lmaydi. Otangiz bularga e'tibor bermagani uchun kasal bo'lgan. Endi unga sumalak pishirib beringlar, zora tuzalib ketsa», debdi. Uydagilar sumalak pishirib, kasalga yedirishibdi. Qariya tuzalib ketibdi. Sumalak yangi tabiiy oziqlarga ehtiyoj kuchaygan «ilik uzildi» vaqtida tayyorlangan. Tabiat o'zgarishi, kunlar isishi davrida inson organizmida kamquvvatlik, behollik, hatto, bosh aylanishi, ko'z tinishi hollari ro'y beradi. Avlodlarimiz buning ham ilojini topishgan. Ular darmon dorilarga boy ko'katlar solingan taomlar yeyishgan. Jumladan, ko'kat — o'simlikdan sumalak pishirish odatini yaratishgan. Ya'ni bug'doy undirib, uni kelida tuyib shirasi olingan; yog', un qo'shib, oqsilga boy tansiq, taom tayyorlashgan. Shu tarzda odamlar «ilik uzildi» mavsumidan oson chiqishgan, yangi iqlim sharoitga tez moslashishgan, moddiy va ma'naviy quvvat olishgan. Sumalak ham suyuq, ham quyuyq, ham kalloriyali, ham parhez taomdir. Tabiblarning aytishicha, sumalak tarkibida qonga juda tez so'riladigan monoxarid moddasi bor. Sumalak tarkibidagi oqsil ham a'zoyi badanimizdagi milliardlarcha hujayralar uchun eng yaxshi ozuqadir. Sumalakda sog'u-bemor uchun birday zarur bo'lgan «S» darmondorisi bor. Bundan tashqari unda «tokoferol» moddasi mavjud. Bu nimrang yog'simon modda jenshen tarkibida uchraydigan «E» darmondorisining aynan o'zginasidir. Sumalak gipertoniya kasaliga eng yaxshi davodir. U qon tarkibini yaxshilaydi. Tomirlar toraygan bo'lsa, qonni suyultiradi. Oshqozon va ichak yo'llari faoliyatini kuchaytiradi. Issig'i ko'tarilgan, qon bosimi oshgan kishi sumalak bilan (2 kun) parhez qilsa, darhol o'zida yaxshi o'zgarishni his qiladi. Shunday qilib, sumalak ilohiy-mo'jizaviy taom bo'lib, u kishining ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan birga, uniga ma'naviy-ruhiy holatini ham yaxshilaydi.

Qovun sayli

Poliz mahsulotlari pishganda hosilni yig'ishtirib olish munosabati bilan o'tkaziladigan bayramlar orasida Qovun sayli alohida o'rin tutgan. Qovun sayli o'rta, asrlarda katta tantanalar bilan o'tkazilgan. Mustaqillik davrida bu bayram muntazam ravishda o'tkaziladigan bo'ldi. Endilikda zamonaviy qovun sayli O'zbekistondagi hosil bayramlari ichida o'ziga xos o'rin tutadigan bo'ldi. Bu bayram poliz mahsulotlari pishganda nishonlanmoqda. Qovun saylining o'tkazilish usullari ham boshqa hosil bayramlarinikiga o'xshaydi. Unda ham qovun-tarvuzlarning eng yaxshi navlari namoyish etilib, ko'rgazmali tanlovlar, ko'riklar o'tkaziladi. Eng yaxshi qovun navlarini etishtirgan mirishkorlar maxsus mukofotlar

bilan takdir- lanadi. Qovun saylining diqqatga sazovor jihati unda qovun-tarvuz va poliz ekinlari mahsulotlari yarmarkalari tashkil etilishidir.

Manbaa: O‘zbek xalq bayramlari kitobidan olindi